

**“TENGE BANK” ATB MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI  
KO‘RSATISH ORQALI BANK KARTASIDAN FOYDALANGAN HOLDA  
JISMONIY SHAXSNING TOPSHIRIG‘IGA KO‘RA PUL O‘TKAZISH  
BO‘YICHA XIZMAT KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDAGI  
OMMAVIY OFERTA**

**Toshkent sh.**

**Atamalar va ta’riflar:**

**Avtorizatsiya qilish** – Karta yoki uning rekvizitlarini Karta emitent Bankidan yoki To‘lov tizimidan foydalangan holda operatsiyani amalga oshirishga ruxsat berish yoki taqiqlash shaklida so‘rash yoki bunday so‘rovga javob olish tartib-taomili.

**Bank** – bu tijorat tashkiloti bo‘lgan va bank faoliyati sifatida belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxs.

**Pul o‘tkazmasi valyutasi** – Pul o‘tkazmasini amalga oshirish uchun Farmoyish berishda To‘lovchi tomonidan ko‘rsatilgan pul o‘tkazmasi Summasi bilan ifodalangan valyuta. O‘zbekiston so‘mlari yoxud chet el valyutasi (xalqaro pul o‘tkazmalari uchun).

**Identifikatsiya** – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belnilangan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilash bo‘yicha tadbirlar majmui.

**Emitent Bank** – “UZCARD” va “HUMO” plastik kartalarini, shu jumladan “Mastercard” kartalarini O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida emissiyasini amalga oshiruvchi tashkilot.

**To‘lovchining kartasi** – “UZCARD” va “HUMO” to‘lov tizimiga (keyingi o‘rinlarda “TS” deb yuritiladi) a‘zo bo‘lgan emitent banklar tomonidan emissiya qilingan “UZCARD” va “HUMO” bank kartasi. Shuningdek, “Tenge Bank” ATB tomonidan emissiya qilingan “Mastercard” kartalari.

**Oluvchining kartasi** – Emitent, ya’ni “Qozog‘iston Xalq banki” AJ Banki tomonidan Oluvchining nomiga chiqarilgan xalqaro to‘lov tizimining bank kartasi, uning rekvizitlaridan foydalangan holda Pul o‘tkazmasi amalga oshiriladi.

**Milliy To‘lov tizimi** – “Milliy To‘lov tizimi” “UZCARD” va “HUMO” Banklararo to‘lov tizimlarini anglatadi.

**Xalqaro To‘lov tizimi** – “VISA Inc.” xalqaro to‘lov tizimi, “MasterCard Worldwide” xalqaro to‘lov tizimi, “UnionPay” to‘lov tizimi.

**To‘lovchi** – muomalaga layoqatli, ushbu Oferta shartlarini akseptlash orqali Shartnoma tuzishga qaratilgan harakatni amalga oshirgan, To‘lovchining kartasi egasi bo‘lgan va Bankka Pul o‘tkazmasini amalga oshirish to‘g‘risida Farmoyish bergan shaxs.

**Oluvchi** – To‘lovchi tomonidan pul o‘tkazmasini Oluvchi sifatida belgilangan shaxs, uning foydasiga To‘lovchi Pul o‘tkazmasini amalga oshirish to‘g‘risida Farmoyish yuboradigan: muomalaga layoqatli shaxs, uning foydasiga To‘lovchi Bankka pul o‘tkazmasini amalga oshirishni buyuradi.

**Tekshirish kodi** – Bank tomonidan generatsiya qilinadigan va Mijozga SMS-xabar shaklida Mijozning mobil telefon raqamiga va/yoki elektron pochta manziliga yuboriladigan maxsus bir martalik o‘zgaruvchan kod. Tekshirish kodidan foydalangan holda Mijozning barcha amalga oshirilgan harakatlari ustidan da’vo keltirilmaydi va Mijoz uchun amaldagi

qonunchilik talablariga muvofiq o'z qo'li bilan qo'yilgan imzolardan foydalanishga o'xshash huquqiy oqibatlariga olib keladi. Tekshirish kodini kiritish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Ommaviy ofertani akseptlash hisoblanadi.

**Oluvchining bank kartasi** – bank hisobvarag'i shartnomasi asosida Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan pul o'tkazmasini Oluvchiga ochilgan bank kartasi, uning rekvizitlari bo'yicha to'lovchining Kartasidan pul o'tkazmasi amalga oshiriladi.

**Pul o'tkazmasi summasi** – To'lovchi va/yoki To'lovchi tomonidan vakolatlangan Oluvchi Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishda taqdim etilgan rekvizitlarga muvofiq Bank tomonidan To'lovchining topshirig'i bo'yicha Oluvchining foydasiga o'tkazilishi kerak bo'lgan pul mablag'lari miqdori.

**Bank tariflari** (keyingi o'rinlarda "Tariflar" deb yuritiladi) – Pul o'tkazmalarining shartlari va qiymatini belgilovchi o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hujjat. Tariflar Bankning WEB-saytida joylashtiriladi.

**Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi farmoyish (Farmoyish)** – To'lovchi tomonidan Bankka Bankning MBXX foydalanish orqali uzatiladigan, Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun zarur rekvizitlarni o'z ichiga olgan axborot xabari shaklida shakllantiriladigan elektron hujjat.

Ushbu hujjat (keyingi o'rinlarda "Oferta" deb yuritiladi) jismoniy shaxslarga, bank kartalari egalari (keyingi o'rinlarda "Foydalanuvchi" deb yuritiladi) "Tenge Bank" ATBning (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) MBXX xizmatlaridan, shu jumladan "Tenge Bank" ATBning mobil ilovasidan foydalangan holda Bank kartasidan Operatsiyalarni onlayn tarzda amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzish to'g'risidagi rasmiy taklifi hisoblanadi.

Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish uning quyidagi keltirilgan shartlarga so'zsiz roziligini anglatadi (Ofertani akseptlash). Ofertani akseptlash paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

-

Ushbu Oferta shartlarini tuzish va qabul qilish, pul mablag'larini Oluvchining karta hisobvarag'iga o'tkazish (keyingi o'rinlarda "pul o'tkazish" deb yuritiladi) tasdiqlovi sifatida tranzaksiya summasini MBXX servisi ("Shaxsiy kabinet", Bankning mobil ilovasi va h.k.) orqali MBXX tizimida pul mablag'lari o'tkazilganligi to'g'risida tasdiq va/yoki Bank tizimida ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborish shaklida oluvchining bank kartasi hisobvarag'iga yuborish bo'yicha operatsiya amalga oshirilganligi fakti to'g'risidagi xabarnoma xizmat qiladi.

## **1. Shartnoma predmeti**

1.1. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ushbu Ofertani akseptlash yo'li bilan To'lovchi tomonidan tuziladigan Shartnomaning predmeti Bank tomonidan To'lovchiga Shartnoma doirasida Xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

1.2. Mijozni ushbu Oferta shartlariga qo'shilishi ushbu Ofertani MBXX tizimi orqali boshqariladigan Mijoz kartasining mavjud hisobvaraqlaridan onlayn tarzda akseptlash (rozilik) yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.3. Ushbu Oferta shartlarida tuziladigan Shartnoma bir martalik xususiyatga ega, ya'ni Jo'natuvchining bitta farmoyishi asosida bitta pul o'tkazmasini amalga oshirish maqsadida To'lovchi va Bank o'rtasida tuziladi.

## **2. Xizmatlarni ko'rsatish tartibi**

2.1. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlar va tartibda Bank Mijozlarga MBXX servislariga birlashtirilgan kartalardan (shu jumladan boshqa banklarning bank kartalari va "Tenge Bank" ATB Mastercard kartalari) "Qozog'iston Xalq banki" AJ tomonidan chiqarilgan kartalarga pul o'tkazishni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

2.2. Farmoyishni shakllantirish pul mablag'larini Yuboruvchi tomonidan quyidagi harakatlarni ketma-ket bajarish orqali amalga oshiriladi:

- Bankning mobil ilovasi orqali masofadan identifikatsiyalashdan o'tish;
- Bankning mobil ilovasida bank kartalarini ochish;
- Bank tomonidan emissiya qilingan bank kartalarini yoki Bankning mobil ilovasida O'zbekiston Respublikasining boshqa Banki tomonidan emissiya qilingan bank kartalarini birlashtirish;

- Jo'natuvchi tomonidan oluvchining karta renkvizitlarini, oluvchi kartasining oxirgi 4 ta raqamini va ShIR (Shaxsiy Identifikatsiya Raqami)ni, shuningdek oluvchining telefon raqamini kiritish;

- Pul o'tkazmasi summasini so'mda yoki pul o'tkazish valyutasida kiritish;
- To'lovchi tomonidan Pul o'tkazmasi parametrlarini To'lovchi abonent raqamiga olingan tasdiqlash kodini kiritish orqali tasdiqlash.

2.3. Bank (to'lov) kartasidan foydalangan holda Pul o'tkazishni amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishni shakllantirish va yo'naltirishda To'lovchi bank (to'lov) kartalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha Bank talablarini, shuningdek To'lov tizimlarining qoidalarini va talablarini to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

2.4. To'lovchi ushbu Oferta shartlari asosida Shartnoma tuzgan va Bankka Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risida Farmoyish bergan paytdan boshlab (ushbu Ofertaning 2.2-bandi) Bank Jo'natuvchi Mijozga Xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi.

2.5. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab To'lovchida paydo bo'ladigan talab qilish huquqlari To'lovchi tomonidan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

2.6. Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyish asosida To'lovchi Bankka o'tkazmani amalga oshirish uchun To'lovchi Kartasidan pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'g'risida farmoyish beradi:

- Yuboruvchining HUMO, UZCARD va Mastercard bank kartalaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish milliy valyutada – O'zbekiston so'mida amalga oshiriladi, Oluvchi o'z bank kartalariga mablag'larni summani xorijiy valyutaga ayirboshlash yo'li bilan "Qozog'iston tengesi" valyutasida oladi. Chiquvchi transchegaraviy pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyani amalga oshirish paytidagi valyutalar kursi Bank tomonidan belgilanadi.

2.7. To'lovchi/Oluvchi Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishda ko'rsatilgan ma'lumotning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi va Bank tomonidan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi sababli, agar Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi tegishli Farmoyishda noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lsa, Bankka hech qanday da'vo qilishga haqli emas;

2.8. Bank Pul o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida, To'lov tizimlari qoidalarida va ushbu Ofertada belgilangan tartib, muddat va shartlarda amalga oshiradi;

2.9. Bank Pul o'tkazishni To'lovchiga tegishli Farmoyish berilgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kunidan ko'pp bo'lmagan muddatda amalga oshiradi;

2.10. Farmoyish Bank tomonidan Oluvchiga hisobga olinishi kerak bo'lgan va Farmoyishda ko'rsatilgan Pul o'tkazmasi Summasi miqdorida bajariladi. Bunda, Pul o'tkazmasi Summasi ushbu Ofertaning 1-Ilovasida Bank tomonidan belgilangan cheklovlardan oshmasligi kerak.

2.11. Pul o'tkazmasini amalga oshirish Bank tomonidan ushbu Ofertada belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

2.12. Bankning To'lovchi oldidagi majburiyatlari ushbu Ofertaning 2.1-bandiga muvofiq To'lovchi/Oluvchi tomonidan taqdim etilgan rekvizitlarga muvofiq Oluvchining Kartasi Emitentining hisobvarag'iga/Oluvchining Xizmat ko'rsatuvchi bankining hisobvarag'iga Pul o'tkazmasi summasida pul mablag'lari hisobga olingan paytdan boshlab to'liq bajarilgan hisoblanadi;

2.13. Agar Pul o'tkazmasi Oluvchi tomonidan noto'g'ri deb qaytarilgan bo'lsa, Bank Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun pul mablag'lari hisobdan chiqarilgan to'lovchi Kartasining rekvizitlari bo'yicha qaytarilgan pul mablag'larini hisobga olish yo'li bilan To'lovchiga pul mablag'larini qaytarib beradi;

2.14. Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun pul mablag'lari hisobdan chiqarilgan to'lovchi kKartasining rekvizitlari bo'yicha bunday pul mablag'larini hisobga olish mumkin bo'lmagan taqdirda va To'lovchi tomonidan ushbu Ofertaning 4.4-bandida nazarda tutilgan tartibda Pul o'tkazmasini amalga oshirish mumkin emasligi to'g'risida Bank xabarnomasini olganidan keyin pul mablag'larini qaytarib berishni ta'minlash bo'yicha harakatlar bo'lmagan taqdirda, To'lovchining pul mablag'lari To'lovchi tomonidan ko'rsatgan rekvizitlar bo'yicha pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi ariza olingan paytigacha Bank tomonidan ushlab turiladi;

2.15. To'lovchining Farmoyishini bajarish uchun qabul qilinganda, Bank To'lovchining o'z kartasini tasarruf etish huquqini tasdiqlash va To'lovchining Kartasidagi mablag'larning yetarliligini nazorat qilish, shuningdek Oluvchining kartasi/Oluvchining hisobvarag'i/Oluvchining rekvizitlari bo'yicha Pul o'tkazmasi operatsiyasini Avtorizatsiya qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi;

2.16. Bank Pul o'tkazmasi uchun Farmoyishni To'lovchi Kartasining Emitent Banki va Oluvchi Kartasining Emitent Banki tomonidan Pul o'tkazmasini Avtorizatsiya qilish sharti bilan amalga oshiradi. To'lovchining Kartasi Emitentdan va/yoki Oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki To'lov tizimlaridan Pul o'tkazmasini amalga oshirishga ruxsat berishni rad etish olingan taqdirda, Bank darhol To'lovchiga Pul o'tkazmasini amalga oshirish mumkin emasligi to'g'risida xabar beradi;

2.17. Bank oluvchining hisobvarag'iga/Oluvchining rekvizitlari bo'yicha Pul o'tkazmasi uchun Farmoyishni bajaradi, agar Pul o'tkazmasi parametrlari bank faoliyatida ishlatiladigan ishbilarmonlik muomalasi, qoidalari va standartlariga mos keladigan bo'lsa.

2.18. Mijoz Pul o'tkazmasi parametrlarining va to'lovchining Kartasi va/yoki oluvchining Kartasi/Oluvchining rekvizitlarining maxfiyligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Bank tomonidan bunday ma'lumotlar oshkor etilganligi isbotlangan fakt bo'lmagan taqdirda, Pul o'tkazmasi parametrlari oshkor qilingan taqdirda Bank javobgar bo'lmaydi.

**Bank to'lovchiga quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni rad etishga haqlidir:**

2.19. Bankning muayyan Xizmatni ko'rsatish (aniq Pul o'tkazmasini amalga oshirish) uchun texnik imkoniyati mavjud emasligi;

2.20. Bankda To'lovchining Kartasi Emitentidan va/yoki oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi To'lov tizimlaridan va/yoki Xizmat ko'rsatuvchi bankdan operatsiyani amalga oshirish uchun ruxsatnoma mavjud emasligi;

2.21. Shartnomada va/yoki To'lovchi va to'lovchi Kartasi Emitenti o'rtasidagi shartnomada (bitimda) va/yoki To'lov tizimlari qoidalarida va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan operatsiyani amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri taqiq mavjudligi;

2.22. Talab qilingan pul o'tkazmasi Summasi Pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun Bank tomonidan belgilangan limitlardan oshib ketishi (ushbu Ofertaning 1-ilovasi);

2.23. To'lovchining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga muvofiq

noodatiy operatsiyalar yoxud Bank uchun obro‘ xatarlarini keltiruvchi operatsiyalar belgilarini o‘z ichiga olgan operatsiyalarini aniqlash, shuningdek, agar Bank operatsiya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, To‘lov tizimlari qoidalari buzilgan holda amalga oshirilayotganligiga yoki firibgarlik xususiyatiga ega bo‘lganiga gumon qilinayotgan bo‘lsa.

### **3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

#### **To‘lovchining huquq va majburiyatlari:**

3.1. To‘lovchi ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va Shartnoma tuzish maqsadida ushbu Ofertaning 6.2-bandida belgilangan konklyudent harakatlarini amalga oshirish orqali Shartnoma tuzishga haqlidir.

3.2. To‘lovchi u tomonidan tasdiqlash kodini kiritish orqali Pul o‘tkazmasi parametrlarini tasdiqlashidan oldin istalgan vaqtda Xizmatni olishni rad etishga haqlidir (ushbu Ofertaning 2.2-bandining “v”-kichik bandi). Tasdiqlash kodini kiritgandan so‘ng To‘lovchining Xizmatni olishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.3. To‘lovchi ushbu Oferta shartlari asosida Shartnoma tuzish munosabati bilan vujudga kelgan Bankka qo‘yiladigan talab qilish huquqlarini uchinchi shaxsga o‘tkazishga haqli emas.

3.4. To‘lovchi ushbu Ofertaning shartlari, shuningdek ushbu Ofertaning “Shartnomani tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi” 6-moddasida belgilangan tartibda Shartnomaga Bank tomonidan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan o‘z vaqtida va to‘liq hajmda tanishishi shart;

3.5. Ushbu Oferta asosida Shartnoma tuzish orqali To‘lovchi Shartnomani tuzishda kelib chiqqan holatlarning sezilarli o‘zgarishi bilan bog‘liq barcha xavflarni va bunday holatlar Shartnomani o‘zgartirish va/yoki bekor qilish va/yoki To‘lovchi tomonidan Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaslik uchun asos bo‘lishi mumkin emasligini o‘z zimmasiga oladi;

3.6. To‘lovchi Pul o‘tkazmasi parametrlarining (To‘lovchi kartasining rekvizitlari, Oluvchi/Oluvchining kartasi/Oluvchining hisobvarag‘i rekvizitlari, Pul o‘tkazmasi valyutasidagi pul o‘tkazmasi Summasi, Bank uchun Pul o‘tkazmasini amalga oshirish uchun asos bo‘ladigan elektron to‘lov farmoyishini tuzish uchun talab qilinadigan o‘zga parametrlar va b.) ishonchliligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi. Belgilangan ma‘lumotlar noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda, Bank To‘lovchi tomonidan pul o‘tkazmasini Oluvchi oldidagi majburiyatlarning lozim darajada bajarilmaganligi (shu jumladan o‘z vaqtida bajarilmaganligi) uchun javobgar bo‘lmaydi.

### **4. Bankning huquq va majburiyatlari:**

4.1. To‘lovchi ushbu Ofertaning 2.1 va 2.2-bandlarida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab Bank Shartnoma doirasida Xizmat ko‘rsatish majburiyatini o‘z zimmasiga olishi shart.

4.2. Bank To‘lovchining Farmoyishiga muvofiq To‘lovchi tomonidan Pul o‘tkazmasini amalga oshirish to‘g‘risidagi Farmoyish berilgan paytdan e‘tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay Pul o‘tkazmasini amalga oshirishi shart (ushbu Ofertaning 2.2-band), agar:

- Farmoyishda Pul o‘tkazmasini amalga oshirish uchun barcha kerakli rekvizitlar bo‘lsa;

- Pul o'tkazmasi Summasi ushbu Ofertaa 1-ilovada Bank tomonidan belgilangan Pul o'tkazmasi summasi bo'yicha cheklovlardan oshmasa;

- Bank tomonidan to'lovchining Kartasi Emitentidan va oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi To'lov tizimlaridan va/yoki ularga Xizmat ko'rsatuvchi bankdan Pul o'tkazmasi bo'yicha operatsiyani amalga oshirish uchun ruxsatlar olingan bo'lsa.

4.3. Ushbu Ofertaning 3.4, 3.6-bandlarida belgilangan shartlardan biron-biri bajarilmagan taqdirda, Bank To'lovchiga Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishni bajarishni rad etishga haqlidir.

4.4. Bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pul o'tkazmasini Oluvchi foydasiga o'tkazishning iloji bo'lmagan taqdirda, shu jumladan agar To'lovchi tomonidan noto'g'ri ma'lumot taqdim etilgan bo'lsa (ushbu Ofertaning 3.6-bandi), Bank To'lovchini abonent raqamiga tegishli xabarnoma yuborish va/yoki uni To'lovchining Servisdagi shaxsiy kabinetida joylashtirish orqali xabardor qiladi.

4.5. Pu o'tkazmasini amalga oshirishda Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging me'yoriy hujjatlariga, To'lov tizimlari Qoidalariga va ushbu Oferta shartlariga amal qilishi shart.

Bank ushbu Ofertaga ushbu Ofertaning "Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi" 6-moddasida belgilangan tartibda Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega;

4.6. Bank Shartnomani bajarish jarayonida Bank tomonidan To'lovchidan olingan har qanday ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart.

## **5. Tomonlarning javobgarligi**

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Tomonlar ushbu Oferta shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Bank Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik va/yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar Shartnoma bo'yicha bunday bajarmaganlik va/yoki lozim darajada bajarmaganlik To'lovchining va/yoki hisob-kitoblarning boshqa Ishtirokchilarining aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, shuningdek, agar bunday lozim darajada bajarmaganlik To'lovchi tomonidan Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishda noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lsa.

5.3. To'lovchi ushbu Oferta shartlari va/yoki ushbu Ofertaning "Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi" 6-moddasida nazarda tutilgan tartibda Bank tomonidan Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishmaganligi va/yoki o'z vaqtida tanishmaganligi sababli To'lovchida yuzaga kelgan har qanday zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

5.4. To'lovchi ushbu badda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, Bank va bunday uchinchi shaxslar o'rtasida bunday uchinchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash sohasidagi talablariga rioya qilish to'g'risida majburiyatni nazarda tutuvchi tuzilgan shartnoma mavjud bo'lgan taqdirda, uning shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berishga (shu jumladan transchegaraviy o'tkazishga) ham o'z roziligini beradi.

5.5. Ushbu Oferta shartlariga muvofiq To'lovchi u tomonidan amalga oshirish uchun Farmoyish berilgan Pul o'tkazmasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga, xususan, tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni

moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat talablariga javob berishini kafolatlaydi.

5.6. Pul o'tkazmasini oluvchi:

- qurol, o'qotar qurol va portlovchi moddalar va buyumlarni; giyohvand, psixotrop, toksik, o'yuvchi va radioaktiv moddalarni; inson organlari va to'qimalarini; alkogol va tamaki mahsulotlarini; qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xizmatlarni; jinsiy xususiyatga ega, shuningdek umumiy qabul qilingan odob va axloq normalariga zid bo'lgan xizmatlarni; raqamli valyutalarni; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomalada taqiqlangan yoki cheklangan boshqa tovarlarni sotib olish

- firibgarlik, poraxo'rlik, korrupsiya, nafrat, zo'ravonlik, irqiy yoki kamsituvchi murossasizlikning boshqa shakllarini targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlash yoki shaxsiy boylik orttirish maqsadida moliyaviy huquqbuzarliklar; piramida sxemalarini yoki boshqalarni qo'llab-quvvatlash orqali tez boylik orttirish sxemalari, boshqalarni noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydigan, rag'batlantiradigan, osonlashtiradigan yoki o'rgatadigan narsalar bilan bog'liq emas;

5.7. To'lovchi naf olish manfaatida yoki uchinchi shaxsning manfaatida va/yoki uchinchi shaxsning iltimosiga (topshirig'iga, farmoyishiga) muvofiq harakat qilmayotganligini, To'lovchi notanish va/yoki shaxsi aniqlanmagan shaxsga pul mablag'larini yubormayotganligini tasdiqlaydi;

5.8. Tekshirish kodi uchinchi shaxslarga o'tkazilgan taqdirda, Mijoz (foydalanuvchi) Mijozga tegishli va unga tegishli bo'lmagan qurilmalarda MBXX servislariga kirishni amalga oshirish, ma'lumotlar maxfiyligi va yaxlitligining ehtimoldagi buzilishi, shuningdek uchinchi shaxslarning ehtimoldagi noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq xavflar uchun to'liq javobgar bo'ladi.

## **6. Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi**

6.1. To'lovchi tomonidan ushbu Ofertaning 2.1-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish To'lovchi tomonidan ushbu Ofertaning barcha shartlarini istisnosiz to'liq va so'zsiz qabul qilish hamda To'lovchi va Bank o'rtasida ushbu Oferta shartlari asosida Shartnoma tuzish hisoblanadi.

6.2. Shartnoma To'lovchi Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun Farmoyishni shakllantirish va Bankka yuborishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab ushbu Oferta shartlari (ushbu Ofertaning 6.1-bandi) asosida tuzilgan hisoblanadi. To'lovchi tomonidan Bankka tegishli Farmoyishni yuborish faktini tasdiqlash To'lovchi tomonidan Pul o'tkazmasi parametrlarini tasdiqlash kodini kiritishdir (ushbu Ofertaning 2.2-bandining "v"-kichik bandi).

6.3. Shartnoma To'lovchi ushbu Ofertaning 6.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi. To'lovchi Bank istalgan paytda bir tomonlama tartibda, To'lovchiga qo'shimcha yozma xabar bermasdan, Shartnomaga, shu jumladan pul mablag'larini kiritish va Pul o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishlarni topshirish tartibi va shartlariga, shuningdek operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish, operatsiyalar summasi va turlarini cheklash huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi. Shartnomaga ko'rsatilgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar ushbu Ofertaning yangi tahriri Bankning WEB-saytida e'lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

Rus tilidan tarjima

---

**TENGE BANK**  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

*“Tenge Bank” ATB Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali bank kartasidan foydalangan holda jismoniy shaxsning topshirig‘iga ko‘ra pul o‘tkazish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi ommaviy ofertasining 1-Ilovasi*

*Rezidentlar uchun  
so‘m)*

*(ming*

|     |              |              |              |           |
|-----|--------------|--------------|--------------|-----------|
| P2P | Mijoz mavqei | Bir martalik | Bir sutkalik | Bir oylik |
|-----|--------------|--------------|--------------|-----------|



|  |        |              |              |              |
|--|--------|--------------|--------------|--------------|
|  |        | <b>Summa</b> | <b>Summa</b> | <b>Summa</b> |
|  | Sariq  | 40 000       | 70 000       | 164 000      |
|  | Yashil | 40 000       | 70 000       | 164 000      |

*Norezidentlar uchun*

*(ming so‘m)*

| P2P | Mijoz mavqei | Bir martalik | Bir sutkalik | Bir oylik |
|-----|--------------|--------------|--------------|-----------|
|     |              | Summa        | Summa        | Summa     |
|     | Sariq        | 40 000       | 70 000       | 164 000   |
|     | Yashil       | 40 000       | 70 000       | 164 000   |

Limitlar To‘lovchi/jo‘natuvchi uchun o‘rnatiladi.

Agar To‘lovchining Kartasi va (yoki) Oluvchining Kartasi Emitenti Bank tomonidan belgilangan limitlarga nisbatan kamroq summani tashkil qiladigan limitlarni o‘rnatgan bo‘lsa, unda Pul o‘tkazmasi summasi bunday Emitent tomonidan belgilangan cheklovlar summasidan oshmasligi kerak.